

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI, VILOYATLAR  
VA TOSHKENT SHAHRI,  
SHUNINGDEK, TUMAN  
(SHAHAR)LARDAGI  
“YOSHLAR DAFTARI”  
JAMG'ARMALARIGA OID  
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar)lardagi “Yoshlar daftari” jamg‘armalariga oid uslubiy qo‘llanma.** T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 23bet.

Mazkur qo‘llanma Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar)lardagi “Yoshlar daftari” jamg‘armalari faoliyatini tashkil etish, ularning yuritilish tartibi, mablag‘lardan foydalanish mexanizmlari hamda nazorat va hisobot yuritish tartibiga oid asosiy uslubiy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

**Ushbu uslubiy qo‘llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.**

**© O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                    |           |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar.....</b>                                                                               | <b>4</b>  |
| <b>Kirish.....</b>                                                                                                                 | <b>5</b>  |
| <b>Umumiy qoidalar.....</b>                                                                                                        | <b>6</b>  |
| <b>Hududiy va tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg’armalari<br/>mablag’larini shakllantirish manbalari.....</b>                   | <b>7</b>  |
| <b>Hududiy va tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg’armalari<br/>mablag’laridan foydalanish.....</b>                               | <b>10</b> |
| <b>Hududiy va tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg’armalari<br/>mablag’laridan foydalanish bo’yicha hisob va<br/>hisobot.....</b> | <b>18</b> |
| <b>Yakunlovchi qoidalar.....</b>                                                                                                   | <b>19</b> |
| <b>Ilovalar.....</b>                                                                                                               | <b>20</b> |

## Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar

|                                                                                                                                                                                             |                                                                                       |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi 92-son "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori |    |
| Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori                    |    |
| Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-oktabrdagi 617-son "Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori                           |  |

# KIRISH

O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, yosh avlodning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda, **"Yoshlar daftari" instituti va uning doirasida faoliyat yurituvchi jamg'armalar yoshlarni manzilli qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi** sifatida shakllanmoqda.

So'nggi yillarda davlat xizmatlari va ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimining raqamlashtirilishi, shuningdek, "Yoshlar daftari" mexanizmining hududlar kesimida joriy etilishi natijasida yoshlarning ehtiyojlarini aniqlash, zarur yordam ko'rsatish va ularning hayot sifati hamda imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, **Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lardagi "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunar, tadbirkorlik va boshqa sohalarda** yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amaliyotga joriy etilgan.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu qo'llanma "Yoshlar daftari" jamg'armalari faoliyatini muvofiqlashtirish, mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududiy kengashlar, yoshlar ishlari bo'yicha mutasaddi tashkilotlar, mahalla faollari va tegishli davlat organlari xodimlari uchun mo'ljallangan bo'lib, amaliy mexanizmlar, tartib-qoidalar va yondashuvlarni tushuntirib beradi.



# UMUMIY QOIDALAR



**Hududiy va tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg’armasi yuridik shaxs hisoblanmaydi.**



Hududiy “Yoshlar daftari” jamg’armasi mablag’lari tegishlicha **Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qaroriga, shuningdek, tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg’armasi xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qaroriga muvofiq** belgilangan tartibda shakllantiriladi.

Hududiy “Yoshlar daftari” jamg’armasining mablag’lari tegishlicha **Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar g’aznachilik boshqarmalarida, shuningdek, tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg’armasining mablag’lari tuman (shahar) g’aznachilik bo’limlarida** alohida ochilgan shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida yig’iladi.


# HUDUDIY VA TUMAN (SHAHHAR) “YOSHLAR DAFTARI” JAMG’ARMALARI MABLAG’LARINI SHAKLLANTIRISH MANBALARI

Hududiy “Yoshlar daftari” jamg’armasi quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:



**Qoraqalpog’iston Respublika Jo’qorg’i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qaroriga asosan** Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti qo’shimcha manbalari hisobidan har chorakda ajratiladigan mablag’lar;

**Xorijiy (xalqaro) moliya institutlari va boshqa xorijiy donorlarning texnik ko’mak mablag’lari va grantlari;**



Jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik mablag’lari **hamda qonunchilik hujjatlari bilan** taqiqlanmagan boshqa manbalar.

**Bilib oling!**



Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublika Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar **xalq deputatlari Kengashlari qarorlariga asosan**



Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti qo'shimcha manbalari hisobidan har chorakda ajratiladigan mablag'larni




birinchi navbatda, tegishli hududning qo'shimcha manbalari nisbatan kam miqdorda shakllangan tuman (shahar) "Yoshlar daftari" jamg'armalariga o'tkazib borish yuzasidan takliflarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga kiritib borsin.


## Hududiy “Yoshlar daftari” jamg’armasi quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:



Hududiy “Yoshlar daftari” jamg’armasidan ajratmalar; tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlari qaroriga asosan tuman (shahar) budjetlari qo’shimcha manbalari **hisobidan har chorakda ajratiladigan mablag’lar;**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 24-noyabrdagi PF-6118-son Farmonining 12-bandida belgilangan **tushumlarning mazkur Farmonga 3-ilovaga muvofiq miqdordagi mablag’lar;**



Xorijiy (xalqaro) moliya institutlari va boshqa xorijiy donorlarning **texnik ko‘mak mablag’lari va grantlari;**



Jismoniy va yuridik shaxslarning **homiylilik mablag’lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.**

# HUDUDIIY VA TUMAN (SHAHAR) “YOSHLAR DAFTARI” JAMG’ARMALARI MABLAG’LARIDAN FOYDALANISH

Tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg’armasi mablag’lari quyidagilarga yo’naltiriladi:



“Yoshlar daftari”ga kiritilgan, og’ir ahvoldagi yoshlarga **BHMning 4 baravarigacha 1 martalik yordam;**



O’qitish xarajatlari: kasb-hunar va tadbirkorlik bo’yicha o’quv kurslari uchun (muddatiga qarab) **BHMning 4, 8 yoki 12 baravarigacha to’lovni qoplash;**



Haydovchilik kurslari: davlat va nodavlat o’quv markazlari uchun **BHMning 4 baravarigacha subsidiya;**





Dehqonchilik: mini-texnika, urug' va ko'chatlar xaridi uchun **5 mln so'mgacha subsidiya;**



Ijaraga yordam: noturar joy ijarasi uchun **BHMning 25 baravarigacha, lekin 12 oy davomida xarajatlarning 30 foizigacha;**



Asbob-uskunalar: tadbirkorlikni boshlash uchun **BHMning 40 baravarigacha subsidiya;**



"Yoshlar daftari" va "Temir daftar"dagi yoshlarga kontraktning 50 foizigacha, **lekin BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdorda to'lov;**



Axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish uchun oyiga **BHMning 4 baravarigacha (6 oygacha muddatli kurslar uchun);**



Sport, san'at, fan yo'nalishlari bo'yicha kurslar uchun oyiga **BHMning 1 baravarigacha subsidiya;**



Pasport olish: **"Temir", "Ayollar" va "Yoshlar" daftaridagilarning pasport xarajatlarini qoplash;**





Musobaqa xarajatlari: mahalliy bosqichlar uchun **BHMning 4, xalqaro bosqichlar uchun BHMning 40 baravarigacha subsidiya**;



Daftarlar, o'quv qurollari va forma xarajatlarini **yiliga 1 marta qoplash**;



Faol yoshlarning **ichki turizm xarajatlari** (yo'l va mehmonxona)ni qoplash;



3 oygacha muddatli o'quv tashkilotlari uchun noturar joy ijarasiga **BHMning 50 baravarigacha**;



Og'ir holatdagi 30 yoshgacha bemorlarga davolanish xarajatlarini qoplash **(50 BHMgacha)**;



**Pulli psixologik xizmatlar** xarajatlarini qoplash;



**Safarbarlik zaxirasidagi** xizmat to'lovini to'liq qoplash;



Yangi turmush qurganlarga uy-joy qurish uchun **33 mln so'mgacha kreditga kafillik**;



Ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarga **BHMning 3 baravarigacha 12 oygacha subsidiya**;



**Yoshlar festivallari, forumlar, tanlovlar** va boshqa tadbirlarni moliyalashtirish;



Yetakchi iltimosiga binoan **kichik kutubxonalar va sport obyektlarini yaratish va jihozlash**;



Qonunchilikda nazarda tutilgan **boshqa yo'nalishlar**.



## Yoshlar daftari" jamg'armasining ishchi organi:



"Yoshlar daftari" jamg'armasining **yillik ish rejasi va dasturlarini** ishlab chiqadi;

Vasiylik kengashi yig'ilishi kun tartibiga kiritiladigan **masalalarni tayyorlaydi, yig'ilish bayonnomasini yuritadi va rasmiylashtiradi;**



Vasiylik kengashi a'zolariga Vasiylik kengashi **yig'ilishining vaqti va o'tkaziladigan joyi to'g'risida** xabar beradi;

Davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy ko'mak va ko'rsatiladigan moddiy yordam to'g'risidagi ma'lumotlarni **"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning yakka tartibdagi anketasida qayd etib** boradi;





“Yoshlar daftari”ga kiritilgan **yoshlarning murojaatlari bilan ishlaydi va koʻrib chiqish uchun** Vasiylik kengashiga taqdim etadi;

Vasiylik kengashi tomonidan **qabul qilingan qaror toʻgʻrisida** murojaat etuvchiga xabar yuboradi.



Vasiylik kengashi qarori bilan ishchi organga **qoʻshimcha vazifalar** ham yuklanishi mumkin.





**“Yoshlar daftari” jamg’armalari mablag’lari sarflash  
Vasiylik kengashi qarori asosida sarflanadi.**

**Vasiylik kengashi yig’ilishlari har oyda kamida ikki marta —  
oyning 15-sanasi gacha va oxirgi sanasi gacha o’tkaziladi.**



**Vasiylik kengashi raisi Vasiylik kengashi yig’ilishlariga raislik  
qiladi.**




**Vasiylik kengashlari qarorlari Vasiylik kengashi yig’ilishi  
bayoni bilan rasmiylashtiriladi.**

### **Diqqat!**



**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari  
hududiy “Yoshlar daftari” jamg’armasining, Yoshlar  
ishlari agentligining tuman (shahar) bo’limlari tuman  
(shahar) “Yoshlar daftari” jamg’armasining ishchi  
organi hisoblanadi.**

# HISOB VA HISOBOT



# YAKUNIY QOIDALAR



Hududiy va tuman (shahar) "Yoshlar daftari" jamg'armalarining **joriy yilda foydalanilmay qolgan mablag'lari keyingi yilga o'tadi** hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tuman (shahar) mahalliy budjetiga olib qo'yilmaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining hududiy boshqarmalari** mazkur Nizom doirasida tuman (shahar)larda amalga oshiriladigan ishlar uchun ajratilgan mablag'lar samarali va **maqsadli ishlatilishi bo'yicha nazorat o'rnatadi.**



Nizom talablarining buzilishida **aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.**

# ILOVALAR

1-ilova

## **Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi "Yoshlar daftari" jamg'armasi vasiylik kengashining**

### **NAMUNAVIY TARKIBI**

1. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi,  
*ko'ra* viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, *Vasiylik kengashi raisi*
2. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi,  
*ko'ra* viloyatlar va Toshkent shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, *Vasiylik kengashi raisi o'rinbosari*
3. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent  
*ko'ra* shahar prokurorlari (*kelishuv asosida*)
4. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri,  
*ko'ra* Toshkent shahar, Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari
5. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi bandlik va mehnat  
*ko'ra* munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari
6. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri,  
*ko'ra* Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari
7. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi sportni rivojlantirish  
*ko'ra* vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sportni rivojlantirish bosh boshqarmalari boshliqlari
8. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat vazirligi,  
*ko'ra* Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari
9. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent  
*ko'ra* shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari

10. *Lavozimiga* — Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar  
*ko'ra* va Toshkent shahar moliya boshqarmalari boshliqlari
11. *Lavozimiga* — Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish  
*ko'ra* agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari  
boshliqlari
12. *Lavozimiga* — Yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog'iston  
*ko'ra* Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar  
boshqarmasi boshliqlari, *Vasiylik kengashi kotibi*

Izoh. Vasiylik kengashi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, Vasiylik kengashi tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodimlar yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan mas'ullar kiritiladi.

## Tuman (shahar)lardagi “Yoshlar daftari” jamg’armasi vasiylik kengashining

### NAMUNAVIY TARKIBI

1. *Lavozimiga* — tuman (shahar) hokimlari, *Vasiylik kengashi raisi ko’ra*
2. *Lavozimiga* — tuman (shahar) hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosarlari, *Vasiylik kengashi raisi o’rinbosari ko’ra*
3. *Lavozimiga* — tuman (shahar) hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag’allikni qisqartirish masalalari bo’yicha birinchi o’rinbosarlari *ko’ra*
4. *Lavozimiga* — tuman (shahar) prokurorlari (*kelishuv asosida*) *ko’ra*
5. *Lavozimiga* — tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo’limlari) boshliqlari *ko’ra*
6. *Lavozimiga* — tuman (shahar) aholi bandligiga ko’maklashish markazlari boshliqlari *ko’ra*
7. *Lavozimiga* — tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari boshliqlari *ko’ra*
8. *Lavozimiga* — tuman (shahar) sportni rivojlantirish bo’limlari boshliqlari *ko’ra*
9. *Lavozimiga* — tuman (shahar) madaniyat bo’limlari boshliqlari *ko’ra*
10. *Lavozimiga* — tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari *ko’ra*
11. *Lavozimiga* — tuman (shahar) moliya bo’limi boshliqlari *ko’ra*
12. *Lavozimiga* — Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining tuman (shahar) markazlari boshliqlari *ko’ra*
13. *Lavozimiga* — Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo’limi boshliqlari, *Vasiylik kengashi kotibi ko’ra*

Izoh. Vasiylik kengashi a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda, Vasiylik

k

## This image shows a full page of blank white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page, providing a template for writing or drawing. There are no margins, text, or other markings present.